

KITOBGA MUHABBAT SARI YO‘L

Jahongir Abdujalilov

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Bugungi kunda itimoit tarmoqlarda online tarzda o‘tkaziladigan tanlovlar soni oshib bormoqda. Ammo ularning barchasi ham millat rivojini ko‘zlamaganligi achinarli holat. Maqol millatimiz rivoji uchun hissa qo‘shadigan, haqiqiy kitobxonlik sari yo‘l ocha oladigan tanlov haqida yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *Tahlil qilish ko‘nikmasi, Vatanparvarlik, Fikr yuritish, Intellektual salohiyat, Elektron sertifikat, Grant asosida o‘qish, Onlayn tanlov, Mustaqil fikr, Ijtimoiy faollik*

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimi tezlashgan bir paytda insonning bilimga chanqoqligini qondiradigan, uning tafakkur doirasini kengaytiradigan eng asosiy manba bu — kitobdir. Kitob inson tafakkurining eng yuksak mahsuli bo‘lib, har bir jamiyat taraqqiyotining negizida turadi. Aynan shu jihatdan kelib chiqib, O‘zbekistonda yoshlarning mutolaa madaniyatini shakllantirish, ularning so‘z boyligini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Shular sirasiga kiruvchi loyihalardan biri — “Kitobxon Millatimiz” onlayn kitobxonlik tanlovi hisoblanadi. Respublika miqyosida o‘tkazilayotgan bu tanlov Registon o‘quv markazi tomonidan moliyalashtiriladi va yoshlar orasida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga xizmat qiladi. Tanlov ikki bosqichda tashkil etilib, birinchi bosqichda onlayn test asosida saralash ishlari olib boriladi, ikkinchi bosqichda esa eng yaxshi natijalarni ko‘rsatgan 50 nafar ishtirokchi Toshkent shahrida finalda qatnashadi.

Tanlov doirasida nafaqat bilim sinovlari, balki yoshlarning kitobga bo‘lgan muhabbatini oshirish, ularni jahon va milliy adabiyot durdonalari bilan tanishtirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Ayniqsa, “Eng faol targ‘ibotchi” nominatsiyasi orqali yoshlar o‘z tengdoshlariga kitob o‘qish odatini targ‘ib qilishga undalmoqda. Bunday yondashuv, albatta, yoshlarning faolligini oshirib, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxslar qilib shakllantiradi.

Tashkilotchilar safida yosh va ilg‘or rahbarlar – Shohida Yusupova, Sirojiddin Olimov, Jahongir Abdujalilov, Bahodir Ibrohimov kabi bilimli, tajribali va maqsadga intiluvchan shaxslarning borligi, tanlovning ommalashuvi va muvaffaqiyatiga xizmat qilmoqda. Ular tomonidan yaratilgan imkoniyatlar — nafaqat yutuq, balki yoshlar uchun motivatsiya, ishonch va o‘z ustida ishlashga undov bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tanlovdan ko‘zlangan maqsad bir kitob orqali yosh avlodni yetuk insonlar qilib tarbiyalash. Chunki kitob – faqat bilim emas, u tarbiya, madaniyat, ichki dunyo va ruhiy boylik manbai hamdir.

Millat" onlayn kitobxonlik tanlovi tashkilotchilari:

1. Sirojiddin Olimov — Yoshlar ishlari agentligi qoshida ochilgan "Mutolaa" loyihasi rahbari.

2. Shohida Yusupova — "Kitobxon Millat" onlayn kitobxonlik tanlovi bosh tashkilotchisi 4 ta tilda erkin so‘zlasha oladi, 30 dan ziyod Xalqaro tashkilotlarning O‘zbekistondagi yosh elchisi, Garvard Universitetining “Rahbarlik va boshqaruv” yo‘nalishida, Berlin Xalqaro Biznes Institutida “Marketing va kommunikatsiyalar” yo‘nalishlarida tahsil olgan. 50 dan ziyod xalqaro tanlov va festivallar g‘olibi.

3. Jahongir Abduljalilov — "Kitobxon Millat" onlayn kitobxonlik tanlovi muallifi va rahbari, 23 yoshda, Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani chimyon qishlog‘ida tug‘ilgan , Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi, ko‘plab respublika miqyosidagi kitobxonlik tanlovlari targ‘ibot yo‘nalishi g‘olibi va sovrindori(oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘tkazilgan "Kitobxon yoshlar" ligasi 3 mavsum g‘olibi) hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkaziladigan ko‘plab loyihalar tashkilotchisi, ijtimoiy tarmoqlarda 1 milliiondan oshiq auditoriyaga ega.

4. Bahodir Ibrohimov — "Kitobxon Millat" onlayn kitobxonlik tanlovi menejeri. Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti Buxgalteriya va Audit yo‘nalishi talabasi. "SM - Liderlar maktabi" oltin diplom hamda Xalqa Ta'limi Oltin Medali sohibi. "Bir Kitob" loyihasi asoschisi. Yuksalish Liderlar Akademiyasida Mentor, IT House o'quv markazida o'quv bo'limi rahbari lavozimida faoliyat olib borgan. Bahodir Abdulahad kanalida o'rganlarini ulashib keladi. Hozirda Xalqaro Moliya va Buxgalteriya(ACCA) hamda BHMS bo'yicha ta'lim olib kelmoqda.

XULOSA

Bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatning eng muhim tayanchi – bu kitobdir. "Kitobxon Millatimiz" onlayn kitobxonlik tanlovi ana shu ezgu g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishda muhim ijtimoiy platformaga aylanmoqda. Tanlovning asosiy maqsadi – O‘zbekiston yoshlari va fuqarolari orasida kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish, ularni mustaqil fikr yurituvchi, ma’naviy yetuk, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Respublikamiz bo‘ylab minglab ishtirokchilarni birlashtirgan ushbu tanlov nafaqat bilim va tahlil ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, balki yoshlarni ijtimoiy hayotda faollikka undaydi. Tanlovning tashkilotchilari – o‘z sohasida faol va ilg‘or yoshlar, bu loyihaning

chin ma’noda xalq ichiga kirib borishida asosiy kuch hisoblanadi. Kitobga muhabbatni uyg‘otish – kelajakka yo‘naltirilgan eng barakali sarmoyadir.